

MALAYZIYADA XALQARO TURIZM RIVOJLANISHINING ASOSIY YO'NALISHLARI

TDSHU Turizm va mehmondo'stlik yo'nalishi 2-bosqich magistranti

Alimuxamedova Durdon Tohir qizi

durdonamukammed@gmail.com

Ilmiy rahbar: i.f.n., dots,

Xusanov Chori Qodirovich

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Malayziyada xalqaro turizm rivojlanishining asosiy yo'nalishlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda mamlakatning turizm siyosati, infratuzilma rivoji, marketing strategiyalari hamda turizm sohasiga investitsiyalar oqimi o'rganiladi. Shuningdek, "Malaysia, Truly Asia" brendi doirasida amalga oshirilayotgan xalqaro targ'ibot ishlari va ularning turistik oqimlarga ta'siri yoritib berilgan. Malayziya tajribasini O'zbekistonda qo'llash masalalari ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *xalqaro turizm, turizm industriyasi, turizm siyosati, barqaror rivojlanish, ekoturizm marketing strategiyasi, turizm infratuzilmasi, raqamli texnologiyalar, turizm brendi, turizm oqimi, iqtisodiy samaradorlik, turizm bozori, innovatsion rivojlanish, "Malaysia - truly asia" dasturi*

ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ МЕЖДУНАРОДНОГО ТУРИЗМА В МАЛАЙЗИИ

Аннотация: *В данной статье проанализированы основные направления развития международного туризма в Малайзии. В исследовании рассматриваются туристическая политика страны, развитие инфраструктуры, маркетинговые стратегии, а также потоки инвестиций в туристическую отрасль. Кроме того, освещаются международные промоакции, реализуемые в рамках бренда «Malaysia, Truly Asia», и их влияние на туристические потоки. Рассмотрен вопрос применения опыта Малайзии в Узбекистане.*

Ключевые слова: *Малайзия, международный туризм, туристическая индустрия, туристическая политика, устойчивое развитие, экотуризм, маркетинговая стратегия, туристическая инфраструктура, цифровые технологии, туристический бренд, туристический поток, экономическая эффективность, туристический рынок, инновационное развитие, программа "Malaysia – Truly Asia"*

MAIN DIRECTIONS OF INTERNATIONAL TOURISM DEVELOPMENT IN MALAYSIA

Annotation: *This article analyzes the main directions of international tourism development in Malaysia. The study examines the country's tourism policy, infrastructure*

development, marketing strategies, and the flow of investments into the tourism sector. It also highlights international promotional activities implemented under the “Malaysia, Truly Asia” brand and their impact on tourist flows. Furthermore, it discusses the possibility of applying Malaysia’s experience to tourism development in Uzbekistan.

Keywords: *Malaysia, international tourism, tourism industry, tourism policy, sustainable development, eco-tourism, marketing strategy, tourism infrastructure, digital technologies, tourism brand, tourist flow, economic efficiency, tourism market, innovative development, “Malaysia – Truly Asia” program.*

So‘nggi yillarda turizm dunyo iqtisodiyotining eng tez sur‘atlar bilan rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari orasida Malayziya o‘zining boy madaniy merosi, tabiiy go‘zalliklari va zamonaviy infratuzilmasi bilan xalqaro sayyohlar e‘tiborini tobora ko‘proq tortmoqda. Mamlakat hukumati turizm sohasini milliy iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratib, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, investitsiyalarni jalb etish va xizmatlar sifatini oshirish orqali raqobatbardosh turizm bozorini shakllantirmoqda.

2024-yilda Malayziya 37 961 485 nafar xorijiy mehmonni qabul qildi, bu esa 2023-yilga nisbatan 31,1% o‘shishni ko‘rsatadi. Xorijiy mehmonlarning umumiy xarajatlari 106,8 milliard ringgitga yetib, o‘tgan yildagi 74,3 milliard ringgitga nisbatan 43,7% o‘shish qayd etildi.²⁵

Xorijiy mehmonlar uchun yetakchi manba mamlakatlar orasida Singapur birinchi o‘rinda turadi, undan keyin Indoneziya, Xitoy, Tailand, Bruney va Hindiston joylashgan. Ayniqsa, Xitoy va Hindistondan tashrif buyuruvchilar soni keskin oshgan bo‘lib, bu har ikki mamlakat uchun vizasiz kirish imkoniyatlarining joriy etilishi bilan bog‘liq.

Quyidagi jadvalda 2024-yilda xorijiy mehmonlarning eng ko‘p tashrif buyurgan oltita manba mamlakatlari keltirilgan. (1-jadval)

1-jadval. 2024-yilda Malayziyaga tashrif buyurgan turistlar soni top 6 mamlakat misolida²⁶

Turizm bozori	2024-yilda tashrif buyurgan turistlar soni (kishi)	O‘shish 2024/2023
Singapur	18,855,680	2 7,20%
Indoneziya	4,14 5,127	19,10%
Xitoy	3,72 5,894	130,90%

²⁵ https://data.tourism.gov.my/frontend/pdf/New_Final_Malaysia%20Tourism%20Statistics%20in%20Brief%202024.pdf

²⁶ Malayziya Turizm Kengashi Strategik Rejalashtirish bo‘limi, Malayziya Immigratsiya boshqarmasi hamkorligida <https://itc.gov.my/>

Tailand	2,268,182	- 1,40%
Bruney	1,732,119	55,20%
Hindiston	1,365,387	7 6,60%

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, Malayziyaga eng ko'p turistlar Singapurdan tashrif buyurishgan. Bundan tashqari, 2023-yilga nisbatan eng katta o'sishni qayd etgan ko'rsatkich Xitoy bo'lgan bunga asosiy sabab esa ikki mamlakat o'rtasidagi xalqaro munosabatlarning yangi bosqichga chiqqanligi va viza rejimining soddalashtirilganligidir. Tailanddan tashrif buyurgan turistlar soni esa mamlakatdagi daromad darajalari, turistlar qiziqishlarining o'zgarishi hisobiga 1.4% ga tushish ko'rsatkichini qayd etgan.

Malayziya 2024-yilda musulmon sayyohlar uchun infrastrukturani yaxshilash, xizmat ko'rsatishdagi talablarni (halol ovqat, ibodat joylari, ramziy jihatlar) inobatga olgan holda sayyohlik ekotizimini yanada mustahkamlashga e'tibor qaratmoqda. Aynan shu jabha Malayziya "Malaysia as a regional Umrah Hub" yo'nalishida ishlamoqda.

Malayziya Turizm, San'at va Madaniyat vaziri YB Dato Sri Tiong King Sing 10-yanvar 2024-yilda Putrajayada boshlangan "Imomlar bilan tanishtirish safari Musulmonlarga qulay Malayziyani kashf eting" dasturi doirasida Xitoydan kelgan 35 nafar imomni qabul qilish marosimi tadbirini o'tkazdi.

Mazkur tanishtiruv safari Islomiy Turizm Markazi (Islamic Tourism Centre- ITC) va Malayziya Ichki Xitoy Assotsiatsiyasi (Malaysian Inbound Chinese Association — MICA) hamkorligida tashkil etildi. Ushbu tashabbus Malayziya Bosh vaziri Dato' Seri Anvar Ibrohimning mamlakatda musulmonlarga qulay turizmga e'tiborni kuchaytirish haqidagi tashabbusiga javoban amalga oshirildi. Loyiha 2024-yilda turizm sohasini tiklashga qaratilgan kengroq dastur doirasida, 350 million ringgit miqdoridagi maxsus byudjet mablag'i bilan qo'llab-quvvatlangan.


Xitoy Malayziya uchun doimiy ravishda muhim turistik manba bo'lib kelgan. Sharqiy Osiyodagi bu mamlakatda hali to'liq o'zlashtirilmagan musulmonlar bozorining ulkan salohiyatini e'tirof etgan holda, Islomiy Turizm Markazi (ITC) Malayziya Turizm, San'at va Madaniyat vazirligini (MOTAC) qo'llab-quvvatlab, Malayziya va Xitoy musulmon jamoalari o'rtasidagi hamkorlikni yanada chuqurlashtirish hamda Malayziya turizm sanoati uchun yangi imkoniyatlarni kengaytirishga sodiqdir.

Ushbu sa'y-harakatlarni kuchaytirish maqsadida MOTAC ikki mamlakat o'rtasida aloqadorlikni va sayohat qulayligini oshirishga qaratilgan yangi choralarni e'lon qildi. Yaqinda taqdim etilgan vizalarni liberallashtirish rejalariga qo'shimcha ravishda, aviaqatnovlarni optimallashtirish bo'yicha ishlar olib borildi. Bir necha aviakompaniyalar bilan muzokaralardan so'ng, 2024-yil mart oyida Sian shahridan Kuala Lumpurga muntazam reys, shuningdek, may yoki iyul oylarida Urumchidan Kuala Lumpurga charter (buyurtmali) reys yo'lga qo'yilishi rejalashtirildi. Bu tashabbuslar ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni

mustahkamlash hamda sayyohlar uchun qulay va uzluksiz safar tajribasini ta'minlashga xizmat qildi.²⁷

Malayziya o'zining "musulmonlarga qulay turizm va mehmondo'stlik ekotizimi" brendi bilan faxrlanadi va Global Muslim Travel Index (GMTI) 2023 reytingida ketma-ket sakkizinchi marta birinchi o'rinni egallagan. Hukumatning musulmonlarga qulay ekotizimni yanada mustahkamlashga bo'lgan sadoqatiga muvofiq, ITC Malayziya hududida "mintaqaviy Umra markazi"ni tashkil etish ustida ishlamoqda. Bu tashabbus musulmon sayyohlarga, jumladan Xitoydan kelganlarga ham, Umra ziyoratini ado etishdan oldin yoki keyin Malayziyaning boy diqqatga sazovor joylarini kashf etish imkonini beradi.²⁸

Hozirgi "Imomlar uchun tanishtiruv safari (Fam Trip)" ayniqsa ahamiyatlidir, chunki u 2024-yilda Xitoy va Malayziya o'rtasidagi diplomatik munosabatlarning 50 yilligiga to'g'ri kelmoqda. Yettita kun davomida imomlar Putrajaya, Kuala-Lumpur, Malakka, Seremban, Port Dikson, Shah Alam va Bentong hududlarini qamrab olgan maxsus dastur orqali Malayziyaning boy madaniy merosi, tarixiy yodgorliklari, rang-barang an'analari hamda musulmonlarga qulay turizm va mehmondo'stlik xizmatlari bilan tanishtiriladi.²⁹



1-rasm. Malayziyaga tashrif buyurgan turistlar soni (2025-yil, Yanvar-aprel, kishi)

Shuningdek, Malayziyada xalqaro turizm Vizalar va havo aloqalarini yengillashtirish siyosati ham olib borilmoqda. Bu masalada vizalarni liberallashtirish ya'ni chegirmalar yoki vizasiz rejimlar joriy qilish orqali sayyohlar oqimini oshirish ishlari amalga oshirilmoqda. Masalan, Xitoy va Hindiston fuqarolari uchun vizasiz rejimlardan foydalanish imkoniyati berildi. Xususan, 2025-yilda ham yanvar- aprel oyida tashrif buyurgan turistlar orasida

²⁷ <https://www.itc.gov.my/malaysia-unveils-ambitious-plans-for-muslim-friendly-tourism-in-2024/>

²⁸ <https://www.crescentrating.com/reports/global-muslim-travel-index-2024.html>

²⁹ <https://www.google.com/amp/s/www.malaymail.com/amp/news/malaysia/2023/06/25/umrah-hub-malaysia-needs-to-increase-direct-flights-to-jeddah-says-travel-association-chief/76302>

Xitoylik va Hindistonlik turistlar ulushi o'tgan yilgiga nisbatan sezilarli darajada o'sgan, tegishli ravishda 37,8 va 36,6 foiz o'sish qayd etilgan.³⁰

Shuningdek, charter va muntazam aviareyslar sonini ko'paytirish, yangi havo yo'nalishlarini ochish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Havo transportini yaxshilash uchun grantlar (matching grant) taklif qilinmoqda. Ya'ni transport tizimini takomillashtirish ham xalqaro turizm o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.³¹

2-jadval. Malayziyaga tashrif buyuruvchilar turistlar transport turlari bo'yicha(2023-2024-yillar)³²

Transp ort turi	2024 (kishi)	2023 (kishi)	2024/2 023 o'shish ko'rsatkichi (%)	Ulushi (%)	
				2024	2023
Havo	10,983 ,585	7,830, 165	40,3	28,9	27,0
Quruqlik	25,080 ,202	19,360 ,526	29,5	66,1	66,8
Suv	1,313, 098	1,162, 100	13,0	3,5	4,0
Temiryo'l	584,60 0	611,51 7	-4,4	1,5	2,1
Jami	37,961 ,485	28,964 ,308	31,1	100	100

Malayziyada havo transporti rivojlanayotganini 2024-yilda 10,98 million kishi Malayziyaga havo orqali kelganligidan ham ko'rish mumkin. Bu ko'rsatkich 2023-yildagidan 40,3% ko'p, ya'ni eng yuqori o'sish sur'ati aynan havo transportida kuzatilgan. Havo orqali kelgan sayyohlar umumiy tashrif buyuruvchilarning 28,9% ini tashkil qilgan (2023-yilda bu 27% edi). O'sishning asosiy sabablari esa

Xitoy, Hindiston, O'zbekiston kabi mamlakatlar bilan yangi aviaqatnovlar ochilishi;

Vizasiz rejimlar va turizmni rag'batlantiruvchi dasturlar, Malayziya xalqaro aeroportlarining (ayniqsa Kuala Lumpur International Airport) yo'lovchi sig'imini oshirganligidir. Quruqlik orqali kelganlar soni eng katta — 25 milliondan ortiq, lekin o'sish sur'ati (29,5%) havo transportiga nisbatan past ko'rsatkichni qayd etmoqda.

³⁰ <https://data.tourism.gov.my/>

³¹ <https://www.mot.gov.my/>

³² https://data.tourism.gov.my/frontend/pdf/New_Final_Malaysia%20Tourism%20Statistics%20in%20Brief%202024.pdf

Dengiz orqali sayohatlar ham o'sdi (+13%), biroq ularning umumiy ulushi atigi 3,5% ni tashkil etmoqda. Temir yo'l orqali keluvchilar soni esa 4,4% ga kamaygan, bu esa yagona pasayish kuzatilgan transport turi ekanligini jadvaldan ko'rishimiz mumkin. Umumiy holatga ko'ra, 2024-yilda Malayziya turizmidagi eng sezilarli o'sish havo transporti orqali kirgan sayyohlar hisobiga bo'ldi. Bu nafaqat yangi avia yo'nalishlar ochilgani, xalqaro turizmni jonlantirish siyosati va viza yengilliklari bilan ham bog'liq. (2-jadval)

Bundan tashqari Malayziyani xalqaro turizm bozorida o'rnini mustahkamlashiga ta'sir ko'rtayotgan omillardan biri bu sohada raqamli transformatsiya va marketingning rivojlanishi. Jumladan, Turizmni raqamlashtirish jarayonlari amalga oshirilayotganligi - onlayn rezervatsiyalar, raqamli marketing, kampaniyalar, brendlash kabi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2024-yil 28-fevralda o'tkazilgan "Malayziyada gastronomik madaniyat" festivali bunga yaqqol misol bo'la oladi. Bu festivalda 60 dan ortiq mamlakat vakillari ishtirok etishgan va tashkillashtirishda raqamli texnologiyalardan keng foydalanilgan.³³

"Visit Malaysia 2026" kabi milliy kampaniyalar orqali xalqaro reklama va marketing strategiyalarini kengaytirish ham xalqaro turizm bozorida Malayziyaning o'rnini mustahkamlamoqda. Kampaniyaning asosiy maqsadi 2026-yilgacha 35 milliondan ortiq turist jalb qilish, xalqaro reklama va marketing targ'ibotini kuchaytirishgan iboratdir.³⁴

Xulosa o'rnida shuni ayta olamizki, 2024-yilda Malayziyada xalqaro turizmni rivojlantirish strategiyasi mamlakatning iqtisodiy o'sishida muhim o'rin tutdi. Turizm, san'at va madaniyat vazirligi (MOTAC) tomonidan ishlab chiqilgan asosiy yo'nalishlar — barqaror turizmni rivojlantirish, musulmonlarga qulay sayohat infratuzilmasini kengaytirish, ekologik xavfsizlik, madaniy merosni saqlash, transport tizimini modernizatsiya qilish hamda raqamli transformatsiyani jadallashtirishga qaratildi.

Bu chora-tadbirlar natijasida Malayziya xalqaro bozorda raqobatbardosh turizm markaziga aylanmoqda, yangi bozorlar ochilmoqda va turizm sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi ortmoqda. Umuman olganda, 2024-yilgi turizm siyosati mamlakatni barqaror, raqamli va inklyuziv turizm modeli sari yo'naltirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. https://data.tourism.gov.my/frontend/pdf/New_Final_Malaysia%20Tourism%20Statistics%20in%20Brief%202024.pdf
2. Malayziya Turizm Kengashi Strategik Rejalashtirish bo'limi, Malayziya Immigratsiya boshqarmasi hamkorligida <https://itc.gov.my/>
3. <https://www.itc.gov.my/malaysia-unveils-ambitious-plans-for-muslim-friendly-tourism-in-2024/>
4. <https://www.crescentrating.com/reports/global-muslim-travel-index-2024.html>

³³ <https://www.mot.gov.my/>

³⁴ <https://www.visitmalaysia26.com/>

5. <https://www.google.com/amp/s/www.malaymail.com/amp/news/malaysia/2023/06/25/umrah-hub-malaysia-needs-to-increase-direct-flights-to-jeddah-says-travel-association-chief/76302>
6. <https://www.mot.gov.my/>
7. <https://www.visitmalaysia26.com/>